


O'zbekiston o'simliklari



O'zbekiston – bizning ona yurtimiz. Biz yurtimizni sevishimiz va uning boyliklari bilan faxrlanishimiz kerak.

Yurtimizning chiroyli va betakrorligi undagi o'simliklar olamining xilma-xilligidandir.

O'zbekistonning **Tyanshan** va **Pomir-Oloy** tog'larida **archa**, **qoraqarag'ay**, **qarag'ay** kabi ignabargli daraxtlar o'sadi. Ularning shoxlari ko'pincha bir-biriga tutashib, salqin soyali zich o'rmonlarni hosil qiladi. Tog'larda, shuningdek, yong'oq, pista va boshqa ko'plab o'simliklarni uchratish mumkin.



Archa – uzoq umr ko'rishi bilan (2–3 ming yil) mashhur ignabargli daraxt. Uning yaproqlari emas, balki ingichka tikanli ignachalari bor. Mevasi mayda ko'kimtir yoki binafsha rangda bo'ladi. Archa tog'larda o'sadi va havoni tozalaydi.




Qoraqarag'ay – shoxlari qavatma-qavat joylashgan, g'uddalari pastga qarab osilgan, yumshoq va kalta ignachalarga ega baland bo'yli doimiy yashil daraxt. Ular hayvonlarga yashirinish uchun panoh bo'ladi va tog'larni yemirilishdan asraydi.



Qarag'ay – baland bo'yli ignabargli daraxt. Uning shoxlari katta, ignalari uzun va tikanli, g'uddalari yuqoriga qaragan. Havoni tozalaydi va bir necha yuz yil yashaydi.



Yong'oq – shoxlari keng yoyilgan, yirik bargli ulkan daraxt. Uning mazali mevalari qalin va qattiq qobiq ichida joylashgan.



Pista – mayda bargli daraxt yoki buta. Pista to'p-to'p meva tugadi, po'stlog'i yupqa, mevasi kichik, mazali va vitaminlarga boy.



Terak – baland bo'yli va tez o'suvchi daraxt. Shox-shabbalari yuqoriga qarab o'sadi, barglari uchburchak shaklida. Soya beradi, salqinlik yaratadi va havoni tozalaydi.




daraxti

barglari

gullari

Majnuntol – uzun shoxlari pastga osilib o'sadigan daraxt. Barglari ingichka va uzun. Bu daraxt suv bo'yida o'sishni yoqtiradi.




daraxti

barglari

mevalari

gullari

Kashtan – barglari kesilgan shaklda, tikanli yashil po'stloq ichida jigarrang mevalari joylashgan baland bo'lyi daraxt. Mevalari hayvonlarga oziqa bo'ladi, yog'ochidan esa odamlar foydalanishadi.




daraxti

barglari

gullari

mevalari

Chinor – barglari katta, kaft shakliga o'xshash keng shoxli ulkan daraxt. Mevasi tikanli sharchalar ko'rinishida bo'lib, ichida mayda urug'lar joylashgan.



daraxti

barglari

mevalari

gullari

Eman – tanasi mustahkam, barglarining chetlari to'liqinsimon, bir necha yuz yil yashaydigan ulkan daraxt. Mevasi – yong'og'i to'ng'izlar va olmaxonlar uchun oziqa bo'ladi.



O'zbekiston hududining bir qismi **cho'llardan** iborat. Bu yerlarda qurg'oqchil sharoitlarga moslashgan o'simliklarni uchratish mumkin.



Qum qiyog'i – ingichka bargli, past bo'yli, qumda o'suvchi o't. Bu o'simlik qumni ushlab turadi va uni uchib ketishdan saqlaydi.



Saksovul – shoxlari nozik, tangacha bargli buta yoki past bo'yli daraxt. U qumlarni mustahkamlaydi va hayvonlar uchun oziqa sifatida xizmat qiladi.



Yovvoyi lola – yorqin gulbargli chiroyli gul. Bahorda dasht va cho'llarda o'sadi. Ularning ko'plab turlari **Qizil kitob**ga kiritilgan.



1. Qarag'ayning qoraqarag'aydan qanday farqi bor?
2. Yong'oq va pista mevalari qanday bo'ladi?
3. Majnuntol qayerda o'sishni yoqtiradi?
4. Terakning barglari qanday shaklda bo'ladi?
5. Kashtan, eman va chinor odamlar uchun qanday foyda keltiradi?
6. Qanday o'simliklar cho'lda o'sadi?
7. Nima uchun lolalarni uzish mumkin emas?



O'zbekistonda o'sadigan o'simliklardan istalgan biri haqida **3 ta qiziqarli ma'lumot** toping.

